



«TASDIQLAYMAN»
O'zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari

A.XODJAYEV

«14» 02 2017 y.

“O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirish tartibi” xizmati reglamenti

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirish.

1.1. Xizmat nomi

Chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bo'yicha ariza va hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga topshiradilar.

1.2. Xizmat natijasi

O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari ushbu shaxslarning ariza va konsullik hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga yuboradilar.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar va blanklar olish uchun manzil

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi Elchixonalari hamda Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bilan bog'liq blanklarini O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari veb-sahifalaridan olish mumkin.

1.4. Huquqiy asos

1992-yil 2-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi» Qonuni

1.5. Xizmat ko'rsatiladigan shaxslar

Chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari.

1.6. Murojaat etish muddati

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish uchun murojaat qilish arizachining istagi bilan bog'liq.

1.7. Bajarish muddati

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bo'yicha arizaning ko'rib chiqish muddati – 1 yil.

1.8. Tasdiqni berish muddati

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bo'yicha arizachi barcha hujjatlarni taqdim etganidan keyin arizachiga O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish uchun hujjat topshirilganligi haqida ma'lumotnoma beriladi.

2. Xizmat oluvchilarga ma'lumot berish

2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi

Murojaat etuvchi shaxsga quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi kafolatlanadi:

- *Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning joylashgan hududi, ish jadvali, arizachilarni qabul qilish tartibi (telefon orqali oldindan yozilib quyish, murojaat qilgan kun, qabul qilish, jonli navbat...);*
- *kerakli hujjatlar ro'yxati;*
- *kerakli blanklarni olish va to'lovni to'lash tartibi;*
- *xizmatdan foydalanish jarayoni;*
- *xizmat ko'rsatish muddati;*

2.2. Keng xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bilan bog'liq ariza va blanklarni to'ldirish haqidagi ma'lumotni O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari veb-sahifalaridan olish mumkin.

2.3. Murojaat orqali ma'lumot

- *Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat ko'rsatish haqida barcha savollar bo'yicha og'zaki maslahatlar berish (10 daqiqadan ortiq emas) va kerakli hujjatlarning standart matni, tarkibi ko'rinishida yozma ma'lumot berish;*
- *Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha katta hajmdagi ma'lumotni berishni talab qilmaydigan xizmat ko'rsatish haqida barcha savollar bo'yicha og'zaki maslahatlar berish (5 daqiqadan ortiq emas);*
- *Faks orqali: kun-u tun yozma murojaatlarni qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarni murojaatga binoan jo'natish (3 betdan ortiq emas);*
- *Elektron pochta orqali: kun-u tun istalgan yozma murojaatlarni matnning keng tarqalgan formatlar yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida yozma murojaatlarni qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha oddiy matn formatidagi yozma hujjatlarni yoki ilova qilingan fayl yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida, ushbu standartning jo'natishga tayyor bo'lgan fayllar, kerakli blanklar, manzilga borish sxemasi mavjudligi.*

2.4. Xizmat ko'rsatish joyida ma'lumot berish

Manzil, telefon raqamlari, faks, elektron adreslar, veb-sahifalar va boshqa ma'lumotlarni <http://mfa.uz/ru/consular/consular/> da olish mumkin.

2.5. Ishlatiladigan hujjatlar blanklari

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirishning ariza-blanklari qat'iy hisobot yuritiladigan hujjat hisoblanadi.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bilan bog'liq ariza va hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari veb-sahifalaridan olish mumkin.

4. Xizmat ko'rsatish jarayoni

4.1. Kerakli hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bo'yicha arizaga arizachi quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti nomiga ariza;*
- 2) o'rnatilgan tartib bo'yicha anketa-ariza;*
- 3) avtobiografiya va yaqin qarindoshlari haqida ma'lumot;*
- 4) 4 ta surat (35-45 mm);*
- 5) fuqarolik pasportining barcha varaqlaridan nusxa;*
- 6) boshqa davlat fuqaroligini qabul qilganligini tasdiqlovchi yoki vakolat beruvchi hujjat, rasmiy tarjima bilan;*
- 7) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish uchun hujjat rasmiylashtirayotgan arizachi voyaga yetmagan farzandi bilan (18 yoshgacha) hujjat topshirayotgan bo'lsa, bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi va arizachining turmush qurganligi to'g'risidagi guvohnomalarining asli va nusxalarini taqdim etishi lozim;*
- 8) otalari yoki onalari bilan birga fuqarolikdan chiqayotgan 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan farzandlar o'zlarining O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bo'yicha rozilik arizalarini taqdim etadilar;*
- 9) agar ota-ona ikkalasi ham O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lib, faqat bittasi voyaga yetmagan farzandi bilan O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqayotgan bo'lsa, boshqasini bolaning va turmush o'rtog'ining O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqishiga bo'lgan munosabati arizasida ko'rsatilishi lozim;*
- 10) ba'zi hollarda nikohdan ajralganlik to'g'risidagi, o'lim to'g'risidagi guvohnomalar, bolalikka olish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ma'lumotnomalarning notarius tomonidan tasdiqlangan nusxalari talab qilinadi.*

4.2. Xizmatga to'lov

Ko'rib chiqish va arizaga asosan hujjatlarni rasmiylashtirish uchun konsullik to'lovi sifatida 100 AQSh dollari + ma'muriy to'lov to'lanadi.

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari

- 1) anketa-ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalariga topshirish;*
- 2) arizachi bilan konsulning suhbat o'tkazishi va hujjatlarini tekshirish;*
- 3) konsullik va ma'muriy yig'imlarni to'lash va hujjatlarni konsulga topshirish;*
- 4) telefon yoki elektron pochta orqali hujjatlarning tayyor bo'lganligi haqida xabar berish va ularni qabul qilib olish.*

4.4. Idoralararo xizmat ko'rsatish jarayonlari

- 1) konsullik xodimi tomonidan anketa-arizani tekshirish va arizachidan qabul qilishi;
- 2) qabul qilingan hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasiga yuborish;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasi, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga so'rovnomaxati bilan yuborish;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolikdan chiqarish haqidagi Farmonini O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga yuborish va arizachilarni xabardor qilish.

4.5. Rad qilish asosi

Quyidagi sabablarga ko'ra O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish bilan bog'liq arizaning qabul qilinishida rad javobi beriladi:

- 1) Arizachi o'zi haqida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim qilsa;
- 2) Taqdim qilgan hujjatlari talabga javob bermasa (to'liq taqdim etilmasa, noto'g'ri to'ldirilsa);
- 3) Hujjatlarda taqdim qilingan ma'lumotlar noto'g'ri bo'lsa.

5. Sifatni ta'minlash

5.1. Sifat parametrlari

Hujjatlar o'rnatilgan tartibda taqdim qilinsa.

5.2. Sifatsiz ko'rsatiladigan xizmat ustidan shikoyat qilish

Konsullik xodimi tomonidan hujjat qabul qilish asossiz rad etilsa, ushbu holat yuzasidan Konsullik muassasasining rahbariga yoki O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga shikoyat qilish mumkin.

«KIRITILGAN»

O'zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligi
Konsullik boshqarmasi boshlig'i

A.SAXIBOV

«14» 02 2017y.

«KELISHILGAN»

O'zbekiston Respublikasi
Axborot texnologiyalari
va kommunikasiyalarini
rivojlantirish vazirligi

« » 2017y.